

QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR HAMDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH LOYIHALARI

*Magistr: Shorustamov Shavkat Shorasul o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitet*

Annotatsiya: ushbu maqolada, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda uchraydigan muammolar hamda qishloq xo'jaligini rivojlantirish loyihalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi, dehqonchilik, chorvachilik, agrotexnik qoidalar.

Annotation: this article talks about the problems encountered in the development of agriculture and the projects of agricultural development.

Keywords: agriculture, agricultural development strategy, farming, animal husbandry, agrotechnical regulations.

Аннотация: в данной статье рассказывается о проблемах, возникающих при развитии сельского хозяйства и проектах развития сельского хозяйства.

Ключевые слова: сельское хозяйство, стратегия развития сельского хозяйства, земледелие, животноводство, агротехнический регламент.

Mamlakatimizda so'nggi yillar davomida qishloq xo'jaligi mahsulotlari va qishloq xo'jaligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilingani sohani tubdan isloh qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Binobarin, Strategiyada belgilab berilgan ustuvor vazifalarning amalga oshirilishi natijasida yangidan-yangi xo'jalik yurituvchi subyektlar ishga tushirildi. Xo'jalik yuritishning zamonaviy uslublari va ilg'or shakllari, jumladan, turli ixtisoslashuvdagi klasterlar, qishloq xo'jaligi birlashmalari (kooperatsiya) tashkil etildi. Shu bilan birga, hududlarda jami 51,9 ming gektar er qayta foydalanishga kiritildi.

Ammo, bu yutuqlar bilan birga, Strategiyada belgilangan qator tadbirlarni o'z vaqtida va samarali ro'yobga chiqarishga ta'sir qilayotgan muammolar ham mavjud. Jumladan, erlarni o'zlashtirishda davlat-xususiy sherikchilik tamoyillari to'g'ri yo'lga qo'yilmagan, sohaga xususiy investitsiya kiritish masalasiga oid muammolar to'liq o'z echimini topmagan. Paxta xom-ashyosini etishtiruvchi fermer xo'jaliklari bilan paxta-to'qimachilik klasterlari o'rtasida shartnomaviy munosabatlar to'g'ri yo'lga qo'yilmagan.

Yurtimizda boshoqli don etishtirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilishiga qaramasdan, respublika bo'yicha jami 2 229 ta fermer xo'jaligida davlatga

don sotish shartnomaviy rejası bajarılmagan. Shuningdek, Andijonda 7,5 ming, Buxoroda 2,5 ming, Jizzaxda 8,1 ming, Qashqadaryoda 26 ming, Sirdaryoda 36,8 ming, Farg‘onada 15,2 ming gektar maydonlarga belgilangan takroriy ekinlar ekilmagan. Ayniqsa, moyli ekinlar uchun takroriy maydonlar kam ajratilgani o‘simlik yog‘i narxi barqarorligiga salbiy ta‘sir qilmoqda. Natijada joriy yilning oktyabr oyida bozorlarda o‘simlik yog‘i narxining sezilarli darajada ko‘tarilishi kuzatildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda deputatlar, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligining muhim bo‘g‘ini hisoblangan urug‘chilik sohasidagi ishlar, sabzavotchilik, polizchilik, mevachilik sohalarida mexanizatsiyalash darajasini oshirish, ayniqsa, paxtani mexanizatsiyalash usulida terib olish ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha olib borilayotgan sa‘y-harakatlar lozim darajada tashkil etilmaganini ham qayd etdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, majlisda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari Shuhrat G‘anievga “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida” qonunchilik palatasining parlament so‘rovini yuborish haqida qaror qabul qilindi.

“Kosonlik zahmatkash fermerlar bu yil 63 ming 680 tonna paxta topshirdi. Joriy yilda 1120 ta fermer xo‘jaligi tomonidan 21 ming 700 gektar maydonda g‘o‘zaning “Porloq”, “Buxoro-6”, “Buxoro-8” navlari ekilib, agrotexnik qoidalar asosida parvarishlandi. Paxtani qisqa muddatlarda sifatli qilib terib olish, terimga ish bilan band bo‘lmagan aholini ixtiyoriy jalb etish bo‘yicha barcha zaruriy choralar ko‘rildi”, – deydi Koson tumani hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Fahriddin Nomozov.

Aytish joiz, bu yil Koson tumanida terim mavsumi har yilgidek uyushqoqlik bilan tashkil etildi. Hosilni yig‘ib olish ishlari uchun 259 ta terim otryadlari tuzildi. Bu otryadlarda 32 ming nafarga yaqin terimchi mehnat qildi.

Terim ishlarining dastlabki kunlaridan kosonlik fermerlar birinchi terimdan oq paxta topshirish rejasini bajara boshladi. Koson, Gulbog‘, Bobur, Andabozor, Guvalak, Beruniy, Arabxona hududlari bu borada peshqadamlikni qo‘ldan boy bermadi.

“Bu yil Koson tumanida yetishtirilgan hosilni yig‘ib olish uchun chetdan terimchi jalb qilinmadi. Mahalliy aholining daromad topishga bo‘lgan ishtiyoqi tufayli 63 ming tonnalik xirmon ko‘tarildi. Bunda fermerlarimiz, qishloq xo‘jaligi xodimlarining ham mehnati beqiyos bo‘ldi”, – deydi tuman fermerlar kengashi raisi Said Donayev.

Terim ishlari boshlangandan so‘ng, Koson tumani hokimi Asrol Boykarayev tuman ahliga murojaat bilan chiqdi.

“Ayni mavsum daromadsiz qolganlar uchun qulay fursat. Ishsiz fuqarolar paxta terib pul topaman desa, barcha sharoitni yaratib beramiz. Dalaga borish uchun avtobus

tashkillashtiriladi. Issiq ovqat beriladi. Terim pullari muntazam ravishda dala boshida yetkaziladi. Faqat fuqarolarimiz bu imkoniyatdan foydalanib, oq oltinimiz hisoblangan paxtani terib olishga yordam berishlari kerak. Va yana ta'kidlayman, hech kimni paxta terasan deb majburlash yo'q. Ayniqsa, byudjet tashkilotlari, maktablar, tibbiyot muassasalarining hech bir xodimini paxtaga jalb qilish aslo mumkin emas. Buning uchun javobgarlik borligini rahbarlar yaxshi bilishi kerak", – dedi hokim.

Hokimning murojaatidan so'ng, joylarda majburiy mehnatning oldini olish borasida targ'ibot olib borildi. Shu bilan birga, ishsiz va daromadsiz qolgan fuqarolarga paxta terib, moddiy ahvolni yaxshilash mumkinligi tushuntirildi. Bu natija ham berdi.

Kosonlik ko'plab oilalar birinchi terimdayoq o'z ro'zg'ori uchun 30 mln so'mga yaqin mablag' jamg'ardi.

"Bir kunda 1 mln 200 ming, 1 mln 300 ming pul topyapmiz, – deydi ana shunday oila boshlig'i Azamat Jumayev. – Men, ayolim, ikki nafar o'g'lim, qizim va kelinim bilan jami 6 kishi terim ishlarida qatnashyapmiz. Kuniga 1 tonna, ba'zan 1 tonna 200 kg paxta tergan vaqtlarimiz ham bo'ldi".

"Gulbog'" mahallasida istiqomat qilayotgan mazkur oila ayni kunlarda paxta terib, 41 mln 80 ming so'm pul ishladi.

Jumayevlar oilasi kabi ko'plab oilalar oilaviy terim ishlarida qatnashib, daromadini oshirdi. Birgina Koson tumani terimchilari uchun shu kunga qadar 80 mlrd so'm pul tarqatildi. Bu pul pandemiya davrida ishsiz qolgan fuqarolarning oilaviy byudjetini oshirishga hissa qo'shmay qolmaydi.

Yana bir muhim ma'lumot, Koson tumanida nafaqat terimchi kuchidan, balki paxta terish mashinalaridan ham foydalanildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan zamonaviy, yuqori samarali paxta terish mashinalarini ishlab chiqarish va terimni mashinada tashkil etish hisobiga ham vaqt tejalmoqda, ham ishchi kuchiga bo'lgan talab qondirilmoqda. SE-220 rusumli paxta terish mashinalari transformer shaklida ishlab chiqarilayotgan bo'lib, mavsumda paxta terish mashinasi sifatida qolgan davrlarda universal-haydov traktori sifatida foydalanish imkonini beradi. Terim kunlarining dastlabki kunida tumanning olis hududlariga 10 ta terim mashinalari keltirildi. Keyinchalik bu mashinalar soni 40 taga yetdi.

Sifatli paxta tolasini yetishtirishda fermerlarning ham hissasi katta bo'ldi. Guvalak fermerlar hududida faoliyat olib borayotgan "Bo'stondagi Nurmat bog'i" fermer xo'jaligi bu yil ham yaxshi natijaga erishdi.

"Fermer xo'jaligimizning umumiy yer maydoni 190 gektarni tashkil qiladi. Bu yil shundan 108 gektariga paxta yetishtirdik. Reja 271 tonna etib belgilangan edi. Biz 299 tonna, 110 foiz paxta topshirdik. Hozirda ikkinchi va uchinchi terim ishlari dalalarimizda uyushqoqlik bilan davom etmoqda. Rejani 120 foizga yetkazmoqchimiz", – deydi fermer xo'jaligi rahbari Madamin Sultonov.

Prezident Shavkat Mirziyoyev klaster tizimiga to'xtalar ekan: "Qishloq xo'jaligining barcha yo'nalishlaridagi klasterlar joylarda tadbirkorlikni rivojlantirishning lokomotivi bo'lishi kerak", "klaster tizimi – bu manfaatdorlik, sohaga ilm-fan va innovatsiyaning kirib kelishi, qishloq xo'jaligining kelajagi va raqobatbardosh bo'lishi demakdir", – deb alohida ta'kidlagandi.

Paxta xomashyosini yetishtirishda davlat buyurtmasi to'liq bekor qilinib, qishloq xo'jaligida erkin bozor tamoyillari shakllana boshladi. Koson tumanida ham paxta yetishtirishda klaster tizimining hissasi katta bo'ldi. Tumanda tashkil qilingan "Bunyodkor" va "Baxt" klasterlari fermerlarga agrotexnik tadbirlar bajarilishi va barcha jarayonda yaqindan yordam berdi.

Ayni kunlarda tumanda birinchi terim ishlar yakunlanib, hududlarda ikkinchi terim ishlari tashkil qilinmoqda.

E'tiborlisi, dastlab Koson tumanida qo'lda terilgan 1 kilogramm paxta uchun 1200 so'mdan haq to'langan bo'lsa, endilikda 1600 so'mdan to'lanib, 50 kilogrammdan ortiq paxta tergan terimchilarga o'simlik yog'i rag'batlantirish maqsadida tarqatilmoqda.

Dalalarimizda hali hosil mo'l. Bu esa bobodehqonlarimiz uchun yil omadli kelganidan darak beradi

Mamlakatimizda pillachilik va qorako'chilik tarmoqlarining mavjud salohiyatini har tomonlama ishga solish hamda ishlab chiqarish korxonalarining rentabelligini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish orqali ushbu sohalarni qayta tiklash va rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida pillachilik va qorako'chilikni yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6059-son [Farmoni](#) misol qilsak bo'ladi.

Shu bilan birga, mazkur tarmoqlardagi infratuzilma resurslaridan samarali foydalanilishini ta'minlash, nasl ko'rsatkichlarini yaxshilash, ozuqa bazasini mustahkamlash, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tizimli ishlarni yo'lga qo'yish bo'yicha faoliyatni kuchaytirish talab etilmoqda.

Pillachilik va qorako'chilikni jadal rivojlantirishni ta'minlash, pillachilik va qorako'chilik klasterlarini tashkil qilgan holda xomashyoni chuqur qayta ishlashni tashkil etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga olib chiqishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, joylarda yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida:

- 2021-yil 1-iyulga qadar respublikaning yaylovlarga ega barcha hududlarida ozuqa bazasini yaratgan holda mayda shohli nasldor mollarni ko'paytirish, shuningdek, mol so'yish, teri va junni qayta ishlash, go'sht-sut mahsulotlari, yarim

tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarini tashkil qilish bo'yicha qorako'lchilik klasterlari (keyingi o'rinlarda – klasterlar) tashkil qilinadi;

- klasterlarga qorako'l zotli qo'ylarini boqishga mo'ljallangan, shu jumladan, o'rmon bilan qoplanmagan o'rmon fondi yerlaridan yaylovlar ijaraga beriladi;

- klasterlarga yaylovlardan samarali foydalanish, ularning holati yomonlashib ketishiga yo'l qo'yimaslik, ilmiy va innovatsion yondashuvlarni qo'llagan holda mayda shohli nasldor mollarni ko'paytirish, klaster ishtirokchilari o'rtasida kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yish orqali xomashyoni chuqur qayta ishlashni va mahsulot ishlab chiqarishni tashkillashtirish bo'yicha majburiyatlar yuklanadi;

- klasterlar Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti hamda Buxoro cho'l-yaylov ozuqabop o'simliklar urug'chiligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi bilan yaqindan hamkorlik qiladi;

- 2021-yil 1-yanvardan boshlab klasterlarga hududlarda shaxtali va tik quduqlar, shuningdek, suv tortish uchun nasos stansiyalarini yangidan qurish va rekonstruksiya qilishga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-yanvardagi "Pillachilik tarmog'ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4567-son qarori 2-bandida nazarda tutilgan 120 million so'mgacha miqdorda subsidiyalar berish tartibi qo'llaniladi;

- Respublika "Qorako'lchilik" uyushmasi (keyingi o'rinlarda – Uyushma) a'zolari – klaster ishtirokchilariga mayda shohli nasldor mol xarid qilish va ko'paytirish, shuningdek, mol so'yish, ozuqa bazasini yaratish, yarim tayyor va tayyor, shu jumladan, go'sht-sut mahsulotlari ishlab chiqarish, teri va junni qayta ishlash hamda binolarni rekonstruksiya qilish va ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash loyihalarini moliyalashtirish uchun 2020-2023 yillarda ajratiladigan bank kreditlari bo'yicha foiz xarajatlarini qoplashga, loyihalar hajmi, soni va ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan valyuta turidan qat'i nazar, tijorat banklari tomonidan o'rnatilgan foiz stavkasining 50 foizi, biroq 10 foizlik punktidan ko'p bo'lmagan miqdorda Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan kompensatsiyalar beriladi;

- Uyushma a'zolariga qo'l mehnati uchun uskunalar xarid qilish bo'yicha xarajatlarni qoplash uchun kamida bitta ish o'rni yaratish sharti bilan Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida subsidiyalar ajratiladi.

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi bilan birga 2021-yil 1-iyulga qadar tashkil etilayotgan klasterlarga ozuqa bazasini yaratish uchun foydalanishga kiritilayotgan qishloq xo'jaligi maydonlaridan 1-ilovaga muvofiq ajratib berilishini ta'minlasin.

- Moliya vazirligi 2020-yil 1-oktyabrga qadar Respublika “Qorako‘lchilik” uyushmasi huzuridagi Qorako‘lchilikni rivojlantirish jamg‘armasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-avgustdagi “Qorako‘lchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4420-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratilishi lozim bo‘lgan mablag‘larning qolgan qismini ajratsin.

- 2021-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasida qorako‘lchilikni rivojlantirishning maqsadli parametrlari 2–2.13-illovalarga muvofiq tasdiqlansin.

- Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita) tashkil etilsin.

Quyidagilar Qo‘mitaning asosiy vazifasi etib belgilansin:

pillachilik va qorako‘lchilik sohasida yagona davlat siyosatini olib borish, shuningdek, ushbu tarmoqlarni yagona ilmiy-texnikaviy siyosatni yuritgan holda, muvofiqlashtirilgan tarzda rivojlantirishni ta‘minlash;

tut plantatsiyalari va yaylovlarning qat‘iy hisobini yuritish va fondini o‘rganish, shuningdek, pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish uchun ozuqa bazasini yaxshilash;

ipak qurti va qorako‘l zotli qo‘ylarning yuqori darajada mahsuldor nasllarini joriy qilish;

pilla va qorako‘l terisidan tayyor mahsulot ishlab chiqarish maqsadida xomashyo tayyorlash va uni qayta ishlash uchun qulay sharoitlar yaratish;

marketing tadqiqotlarini o‘tkazish hamda ipak va qorako‘ldan tayyorlangan mahsulotlarni eng avvalo tashqi bozorlarda sotishga ko‘maklashish;

pillachilik va qorako‘lchilik bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga o‘z faoliyatini kengaytirish, klasterlar tashkil etish va mahsulotni eksport qilishda har tomonlama yordam berish;

- Belgilansinki:

a) qorako‘l zotli qo‘ylarni ko‘paytirishga mo‘ljallangan barcha yaylovlar Qo‘mitaning doimiy egaligiga o‘tkaziladi;

b) yaylovlar klasterlarga Qo‘mita tomonidan mustaqil ravishda, shu jumladan, nol stavkada ijaraga beriladi;

v) o‘rmon fondining o‘rmon bilan qoplanmagan yerlaridagi yaylovlar keyinchalik Qo‘mita tomonidan klasterlarga, shu jumladan, nol stavkada ikkilamchi ijaraga berish uchun O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi tomonidan 3-ilovaga muvofiq Qo‘mitaga nol stavkada ijaraga beriladi;

g) quyidagilar klasterlarni tashkil qilish shartlari hisoblanadi:

Qo‘mita, tashabbuskor hamda Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti o‘rtasida tashabbuskorga yaylovni ijaraga berishni, shuningdek, tomonlarning huquq va majburiyatlarini nazarda tutuvchi shartnoma tuzilishi;

tashabbuskor tomonidan yaylovlardan samarali foydalanish, ularning holati yomonlashib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, ilmiy va innovatsion yondashuvlarni qo‘llagan holda mayda shohli nasldor mollarni ko‘paytirish, klaster ishtirokchilari o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini yo‘lga qo‘yish orqali xomashyoni chuqur qayta ishlashni va mahsulot ishlab chiqarishni tashkillashtirish bo‘yicha majburiyatlar qabul qilinishi;

d) naslchilik chorvachilik subyektlarini davlat attestatsiyasidan o‘tkazish va naslchilik chorvachilik xo‘jaligi maqomi to‘g‘risidagi guvoohnomalarni berish qorako‘lchilikka taalluqli qismida Qo‘mita bilan birgalikda amalga oshiriladi.

- Qorako‘l zotli qo‘ylarni ko‘paytirishga mo‘ljallangan Yaylovlarni xatlovdan o‘tkazish va holatini o‘rganish bo‘yicha komissiya (keyingi o‘rinlarda – Komissiya) 4- ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilsin.

Komissiya 2020-yil 15-oktyabrga qadar qorako‘l zotli qo‘ylarni ko‘paytirishga mo‘ljallangan mavjud yaylovlar Qo‘mitaning doimiy egaligiga o‘tkazilishini ta‘minlagan holda, yalpi xatlovdan o‘tkazsin.

Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi Qo‘mitaning doimiy egaligiga berilayotgan yaylovlarning kadastr pasportlari tayyorlanishini va kadastr hujjatlari rasmiylashtirilishini to‘lov undirilmasdan ta‘minlasin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari 2020-yil 1-noyabrga qadar qorako‘l zotli qo‘ylarni ko‘paytirishga mo‘ljallangan yaylovlarni xatlov natijalari yakunlariga ko‘ra Qo‘mitaning doimiy egaligiga o‘tkazsin.

- Quyidagilar:

Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti – “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi ixtiyoridan; Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti –Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi ixtiyoridan;

Buxoro cho‘l-yaylov ozuqabop o‘simliklar urug‘chiligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi – “O‘zchorvanasl” agentligi ixtiyoridan Qo‘mitaga o‘tkazilsin.

- Qishloq xo‘jaligi vazirligi Jahon bankining amalga oshirilayotgan loyihasi (15 million yevro) va Fransiya taraqqiyot agentligi bilan birgalikda ishlab chiqilayotgan “O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sektorini rivojlantirish” loyihasi (16 million yevro) doirasidagi ikkita grant liniyalari yuqorida ko‘rsatilgan ilmiy-tadqiqot institutlarining moddiy-texnika bazasi, laboratoriya uskunalarini modernizatsiya qilish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, ularga xorijiy mutaxassislarni jalb qilishga yo‘naltirilishini ta‘minlasin.

- Qo‘mita Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda:

Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti, Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti hamda Buxoro cho‘l-yaylov ozuqabop o‘simliklar urug‘chiligi ilmiy-ishlab chiqarish markazining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va respublika

viloyatlarida tashkil qilinayotgan, qishloq xo‘jaligidagi bilim va innovatsiyalar tizimini o‘z ichiga olgan Agroxizmatlar markazlari bilan chuqur integratsiyalashuvini;

pillachilik va qorako‘lchilik bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga Agroxizmatlar markazlari orqali bilimlar berish, ularni ilmiy-amaliy qo‘llab-quvvatlash va xizmatlar ko‘rsatish tizimi joriy etilishini ta‘minlasin.

- Belgilansinki, O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali ipak chiqindilari (shu jumladan, ipak momig‘i) va xom ipak (TIF TN kodi – 5002 va 5003)ni olib chiqishda 2021-yil 1-yanvardan e‘tiboran olib chiqiladigan ipak chiqindilari (shu jumladan, ipak momig‘i) va xom ipakning har bir kilogrammi uchun 0,05 AQSH dollari miqdorida yig‘im undiriladi.

- “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Pillachilikni rivojlantirish jamg‘armasi tashkil qilinsin va O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali ipak chiqindilari (shu jumladan, ipak momig‘i) va xom ipak (TIF TN kodi – 5002 va 5003)ni olib chiqishda undiriladigan yig‘imlardan to‘liq hajmdagi tushumlar, shuningdek, qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar uning mablag‘larini shakllantirish manbai etib belgilansin.

- Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda Qo‘mita boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

2021-2022 o‘quv yilidan boshlab Toshkent davlat agrar universiteti va Samarqand veterinariya meditsinasi instituti filiallarida qorako‘lchilik sohasida kadrlar tayyorlash bo‘yicha maxsus yo‘nalishlar ochishni nazarda tutsin;

Samarqand veterinariya va meditsina texnikumida mayda shohli mollarni ko‘paytirish hamda ipak qurti yetishtirish bo‘yicha kadrlar tayyorlanishini ta‘minlasin;

Marg‘ilon shahridagi 1-son kasb-hunar maktabida ipak qurti yetishtirish, xom ipakni qayta ishlash va ipakdan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha kadrlar tayyorlanishini ta‘minlasin;

Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti hamda Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti ularga mayda shohli mollarni va ipak qurtini ko‘paytirish bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil qilishda ilmiy-metodik yordam ko‘rsatish vazifasini yuklagan holda tegishincha Samarqand veterinariya va meditsina texnikumiga va Marg‘ilon shahridagi 1-son kasb-hunar maktabiga biriktirilsin.

- Ushbu Farmonda nazarda tutilgan chora-tadbirlarning samarali va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida:

a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari:

2020-yil 1-noyabrga qadar qorako‘l zotli qo‘ylarni ko‘paytirishga mo‘ljallangan mavjud yaylovlarni yalpi xatlovdan o‘tkazishda Komissiyaga ko‘maklashsin;

yaylovlar o'z vaqtida Qo'mitaning doimiy egaligiga o'tkazilishini hamda ozuqa bazasini yaratish uchun klasterlarga yer uchastkalari ajratilishini ta'minlasin;

b) O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi 2020-yil 1-noyabrga qadar ushbu Farmonning 3-ilovasida nazarda tutilgan yaylovlar nol stavkada ijaraga berilishini ta'minlasin;

v) Qo'mita 2021-yil 1-iyulga qadar:

klasterlar tashkil qilish va ularga yaylovlarni ijaraga berish uchun tashabbuskorlarni, shu jumladan, chet ellik tadbirkorlar orasidan tanlab olsin;

ishtirokchilarning klasterlar faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha aniq majburiyatlarini belgilagan holda, tashabbuskorlar hamda Qorako'chilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti bilan shartnomalar tuzsin;

klaster ishtirokchilari o'rtasida kooperatsiya aloqalari o'rnatilishini ta'minlasin;

olis cho'l hududlarida mayda shohli nasldor mollarni sug'orish uchun mavjud inshootlar (tik va shaxtali quduqlar)ni rekonstruksiya qilish va yangilarini qurish bo'yicha 2021-yilga mo'ljallangan dasturni tasdiqlasin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 2020-yil 29-avgustdagi "Baliqchilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4816-son Qarorida Respublikada baliqchilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash, baliqchilik va baliq ovlash xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, ushbu sohada yer va suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish hamda intensiv texnologiyalarning keng joriy etilishini ta'minlash maqsadida:

2020-yildan boshlab sun'iy suv havzalarida baliq yetishtiradigan baliqchilik xo'jaliklariga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq suv obyektidan olingan va qaytarib chiqarilgan suv hajmi o'rtasidagi farqidan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish uchun belgilangan stavkalarda hisoblanadi;

- kollektor-drenaj suvlaridan olib foydalanilgan suv resurslari soliq solish obyekti hisoblanmaydi; baliqchilik xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalariga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash uchun foydalanilgan suvning hajmi haqiqatda iste'mol qilingan hajmdan kelib chiqqan holda Suv xo'jaligi vazirligi tarkibiga kiruvchi tashkilotlar tomonidan aniqlanadi; baliqchilik xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan foydalanilgan suvning haqiqatda iste'mol qilingan hajmini aniqlash imkoni bo'lmaganda, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasi belgilangan suvni iste'mol qilish normativlarining 50 foizi miqdorida belgilanadi;

- Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan har yili suv limitlari belgilanayotganda baliqchilik xo'jaliklari foydalanishi mumkin bo'lgan kollektor-drenaj tarmoqlarining ro'yxati shakllantiriladi hamda Suv xo'jaligi vazirligining veb-saytida joylashtirib boriladi; baliqchilik xo'jaliklari foydalanishi mumkin bo'lgan kollektor-drenaj tarmoqlaridagi suvlardan kollektor-drenaj tarmoqlarining loyihaviy parametrlariga

rioya qilgan holda foydalanadi. Suv xo‘jaligi vazirligi: foydalanish mumkin bo‘lgan kollektor-drenaj tarmoqlari, undagi suvlarning sho‘rlanish darajasi va sifati doimiy nazorat qilinishi hamda bu to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘zining rasmiy veb-saytida ko‘rsatib borilishini; sun‘iy suv havzalarida baliq yetishtiradigan baliqchilik xo‘jaliklari uchun suv olish limitlari manbalarning taxmin qilingan va haqiqiy suvliligi, shuningdek, baliqchilik xo‘jaliklarining suv iste‘moli rejalarini hisobga olgan holda belgilanishini; sun‘iy suv havzalarida baliq yetishtiradigan baliqchilik xo‘jaliklari, suv yetkazib beruvchi tegishli tashkilotlar va “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi bilan birgalikda har yili 15-yanvardan kechikmagan muddatda belgilangan tartibda uch tomonlama shartnoma tuzilishini ta‘minlasin. Suv xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi bilan birgalikda: uch oy muddatda sun‘iy suv havzalarida baliq yetishtirish uchun talab etiladigan suv hajmi me‘yorlarini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritsin; 2021-2022-yillarda suv tanqisligi sharoitida daryo va kanallardan suv oladigan baliqchilik xo‘jaliklari tomonidan sun‘iy suv havzalarida bosqichma-bosqich yangi resurs tejamkor intensiv texnologiyalardan va ikkilamchi suv manbalaridan keng foydalanish amaliyotini joriy etsin.

- Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi va Innovatsion rivojlanish vazirligi ikki oy muddatda Baliqchilik ilmiy-tadqiqot institutining Toshkent viloyatida tabiiy va sun‘iy suv havzalarining gidrobiologik va gidrokimyoviy tarkibini, omuxta yem sifatini tahlil qilish hamda baliq kasalliklariga tashxis qo‘yish laboratoriyasini tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin. Bunda:

kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ularda zamonaviy laboratoriya uskunalaridan foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun xorijiy stajirovkalarni tashkil etish;

laboratoriyalarni butlash uchun uskunalar, butlovchi qismlar, reagent va reaktivlarning ro‘yxatga muvofiq xaridlarini amalga oshirish;

baliqchilik sohasida o‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini xatlovdan o‘tkazish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish;

laboratoriyalarni tashkil etish, saqlash va xodimlarga ish haqini to‘lash bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar nazarda tutilsin.

- Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi va “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvarga qadar O‘zbekiston Respublikasi tabiiy suv zaxiralari ixtiofaunasi va suv bioresurslarining yagona ma‘lumotlar bankini (keyingi o‘rinlarda – ma‘lumotlar banki) tashkil etsin.

Innovatsion rivojlanish vazirligi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasining ma’lumotlar bankidan foydalanish bo‘yicha ehtiyojlariga muvofiq moliyalashtiriladigan ilmiy loyihalar tanlovining o‘tkazilishini ta’minlasin.

- Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga asosan Baliqchilik ilmiy-tadqiqot institutining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, innovatsion axborot-resurs xonalari, baliqchilikda seleksiya va naslchilik, baliqlarning tabiiy va sun‘iy ozuqa sifatini tahlil qilishga ixtisoslashgan laboratoriyalarni barpo etish loyihalarini O‘zbekiston Respublikasining 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturiga belgilangan tartibda kiritilishini ta’minlasin.

- Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi va “Ipoteka bank” ATIBning quyidagilarni nazarda tutuvchi takliflariga rozilik berilsin:

yirik baliqchilik klasterlarida baliqlarni inkubatsiya qilish, yopiq suv aylanma tizimida, qafaslar, beton basseynlar va tuproq havzalarida intensiv usulda baliq chavoqlari va tovar baliq yetishtirish bo‘yicha baliqchilik xo‘jaliklari rahbarlari va mutaxassislarini o‘qitish maqsadida pullik asosda o‘quv kurslari tashkil etish;

baliqchilikka o‘qitish bo‘yicha tayanch auditoriyalar, ko‘rgazmali baliqxonalar tashkil etish, shartnoma asosida ushbu yo‘nalishdagi klasterlar, fermer xo‘jaliklari xodimlari, shuningdek, intensiv usulda baliq yetishtirayotgan aholini o‘qitishni yo‘lga qo‘yish.

Belgilansinki, aholi xonadonlarida intensiv usulda baliq yetishtirish loyihalarini amalga oshirish uchun dasturlar doirasida ajratiladigan kreditlar ustuvor ravishda baliqchilikka o‘qitish bo‘yicha kurslarning tegishli sertifikatiga ega bo‘lgan fuqarolarga ajratiladi.

- “Ipoteka-bank” ATIBning “Ipoteka Sarmoyasi” MCHJ ustav fondidagi ulushi “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasiga o‘tkazilganligi hamda ushbu jamiyat tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

baliqchilik sohasida loyihaviy moliyalashtirishni amalga oshirish, shuningdek, yangi loyihalarni ishlab chiqish, mavjud loyihalar (xo‘jaliklar)ning samaradorligini oshirish, ularni moliyalashtirish, lizing xizmatlarini ko‘rsatish, zarur hollarda, loyiha-smeta hujjatlarini, texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishda xorijiy ekspertlarni jalb qilish;

intensiv va yarim intensiv usulda baliq yetishtirish, baliq mahsulotlarini qayta ishlash, tayyor va yarim tayyor baliq mahsulotlarini va jahon andozalari asosida oqsilga boy ozuqa ishlab chiqarish bo‘yicha yangi loyihalarni ishga tushirish;

baliq chavoqlarini yetishtirish va ko‘paytirish bo‘yicha zamonaviy naslchilik korxonalarini tashkil etish.

- Toshkent viloyati hokimligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining Toshkent viloyati Chinoz tumanidagi “Chinoz dehqon bozori” MCHJning “Yangi Chinoz baliq bozori” filiali bino-inshootlarini tegishli hududi bilan birga (keyingi o‘rinlarda – obyekt), keyinchalik uning negizida baliq va baliq mahsulotlari savdosini tashkillashtirishga mo‘ljallangan zamonaviy savdo kompleksini tashkil etish uchun “Chinoz dehqon bozori” MCHJning ustav kapitalidagi davlat ulushini (unga mos keladigan sof aktivlari qiymatini obyektning balans (qoldiq) qiymati miqdorida) kamaytirish hisobiga Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga berish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

- Davlat aktivlarini boshqarish agentligi: bir oy muddatda obyekt negizida sanitariya-epidemiologiya talablariga javob beradigan baliq va baliq mahsulotlari savdosini tashkil etish, tayyor va yarim tayyor mahsulotlarni saqlash uchun muzlatkich uskunalari qurish bo‘yicha minimal investitsiya majburiyatlarini, shu jumladan, yaratiladigan ish o‘rinlari soni yuzasidan takliflar ishlab chiqilishini va tasdiqlash uchun hududiy tanlov komissiyasiga kiritilishini; ikki oy muddatda obyektning investitsiya va ijtimoiy majburiyatlari bilan ommaviy savdolarga bozor qiymati bo‘yicha sotishga joylashtirilishini ta‘minlasin. Bunda, obyekt ommaviy savdolarda qo‘yilgan kundan boshlab uch oy mobaynida sotilmagan taqdirda to‘lovlarni 5 yilgacha muddatga teng ulushlarda bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati bilan bozor qiymati bo‘yicha sotilishi nazarda tutilsin.

- Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi baliqchilikka ixtisoslashgan tumanlarda 10 tadan aholi xonadonlarida intensiv usulda baliq yetishtirish loyihalarini amalga oshirish choralari ko‘rsin.

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi bilan birgalikda bir oy muddatda xorijiy tajriba va resurs tejoychi innovatsion texnologiyalar joriy etilishini nazarda tutgan holda aholi xonadonlarida intensiv usulda baliq yetishtirish uchun qo‘llanma (baliq turi, sifati, yetishtirish sxemasi, resurs tejoychi texnologiyalar) ishlab chiqsin.

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat hokimliklari, hududiy “Chorvanasl” markazlari va “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi:

bir oy muddatda sektor rahbarlari bilan birgalikda hududlardagi aholi o‘rtasida intensiv usulda baliq yetishtirishning afzalliklari hamda samaradorliklari xususida targ‘ibot va tashviqot ishlarini hamda o‘quv seminarlarini tashkil qilish yuzasidan “Ish reja” ishlab chiqsin;

aholi xonadonlarida intensiv usulda baliq yetishtirish istagini bildirgan talabgorlar ro‘yxatini shakllantirib, ularga tijorat banklari orqali kredit mablag‘lari olishda amaliy yordam ko‘rsatsin;

balıq yetishtirishni ta'minlash borasida zarur tadbirlarni o'z muddatida amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilasin.

Suv xo'jaligi vazirligi va Energetika vazirligi aholi xonadonlarida intensiv usulda balıq yetishtiruvchi tashabbuskorlarga suv va elektr energiyasining uzluksiz yetib borishini ta'minlasin.

- Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasi bilan birgalikda aholi xonadonlarida intensiv usulda balıq yetishtirish natijalari yuzasidan asoslantirilgan takliflarni 2021-yil 1-sentyabrga qadar Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimcha kiritilsin.

- Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida:

a) suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamroyev:

balıqchilik xo'jaliklari bilan suvdan foydalanish bo'yicha shartnoma tuzilishi va ularga belgilangan suv miqdori kafolatli yetkazib berilishini, shuningdek, ular tomonidan haqiqatda iste'mol qilingan suvning hajmlari aniqlanishini;

balıqchilik xo'jaliklari tomonidan foydalanish mumkin bo'lgan kollektor-drenaj tarmoqlari ro'yxatining har yili shakllantirilishini, shuningdek, ular haqidagi ma'lumotlar vazirlikning veb-saytida joylashtirib borilishini;

Qishloq xo'jaligi vazirligi va "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasi bilan birgalikda balıqchilik xo'jaliklari tomonidan sun'iy suv havzalarida resurs tejamkor texnologiyalar va ikkilamchi suv manbalaridan keng foydalanish amaliyoti joriy etilishini ta'minlash vazifalari yuklandi.

Xulosa

Yuqoridagilarni inobatga olib xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi juda ham iqlimi mo'tadil joy, qishloq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha qanday mahsulot yetishtirmoqchi bo'lsa buning barchasini iloji bor. Ba'zi mamlakatlar kabi iqlimi yoki geografik joylashuvi to'g'ri kelmay mahsulot yetishtirishning umuman iloji yo'q emas. Albatta har bir narsaning qiyinchiligi bo'lgani kabi bu sohada ham qiyinchiliklar uchraydi. Ammo har narsaning ham ilojini topsa bo'ladi faqat izlanish, g'oya va yangilik yaratishga harakat qilish kerak. Shunda natijaga erishsa bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida pillachilik va qorako'lchilikni yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6059-son [Farmoni](#)

2. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.12.2021-y., 07/21/52/1165-son; 27.04.2022-y., 07/22/225/0351-son; 07.10.2022-y., 07/22/387/0906-son)

3. O'zbekiston qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid me'yoriy hujjatlar to'plami. 1 va 11 jild. T., "Sharq", 1998.

4. A.A.Ribakov va S.A. Ostrouxova. "O'zbekiston mevachiligi". T., "O'zbekiston"

5. T.Ostonaqulov. "Sabzavot ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi", Samarqand, Zarafshon.